

Dolimova Ziyoda

*Andijon davlat pedagogika instituti Ani q va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo`nalishi 1 – bosqich talabasi.*

Annatsiya: *Ushbu tezisd a dengizlarda yashovchi chuvalchangsimon hayvonlarning yana bir turi priapulidlar va kinorinxlar haqida ayrim adabiyotlardagi ma`lumotlar jamlanmasi bo`lib, tarqalishi, tuzilishi, rivojlanishi va filogeniyasi yoritilgan.*

Аннотация: *Этот тезис включает в себя строение, развитие и филогению приапюлидов, другого червеобразного животного, обитающего в морях, и киноринха, червя, тело которого покрыто хитином. Информация, полученная из некоторой литературы, обобщается и представляет собой краткое описание.*

Abstract: *This thesis includes the structure, development and phylogeny of priapulids, another worm – like animal living in the seas, and kinoriynchus, a worm whose body is covered with chitin. The information obtained from some literature is summarized and is a brief description.*

Kalit so`z: *kinorinxlar, priapulida, filogeniya, to`garak chuvalchanglar, sovut, pix, dengiz, suv.*

Kirish

Kinorinxlar dengizlarda tarqalgan to`garak chuvalchanglarning bir turi bo`lib, tana sirtidan tig`iz xitin plastinkalardan iborat sovut bilan qoplangan. Tanasining keying tomonida ko`p sonli xitin qillar va pixlar bo`ladi. Priapulidlar asosan parazitlik qilib yashovchi ular ham dengizlarda tarqalgan chuvalchanglarning bir turi hisoblanad. Hayotiy jarayonlarida ishtirok etuvchi ayrim organlari va organlar sistemasi rivojlanmagan.

Asosiy qism:

Kinorinxlar - dengiz hayvonlari. Ular suv o`tlari ustida, suv tubidagi loyda yoki qumda yashaydi. 100 ga yaqin turni o`z ichiga oladi [1, 179-b]. Kinorinxlar laminriyalarda, boshqa umurtqasiz hayvonlarda yoki cho`kindilarda yashovchi dengiz va ba`zan sho`r suvli meiofaunal hayvonlar guruhi. Kinorinxlar ma`lum bir hududda meiofaunaning 1 – 8% ni va ekstremal holatlarda 0,1% yoki 15 – 33% ni tashkil etadi [2].

Tuzulishi: tana uzunligi 0,18-1 mm bo`lib, kichikroq bosh, kalta bo`yin va uzun gavadan iborat sirtidagi xitin sovut tanasini bir qancha bo`g`imlarga ajratib turadi. Lekin tanasining tashqi metameriyasi ichki tuzilishiga ta`sir qilmasligi tufayli haqiqiy tana haltalari rivojlanmagan. Boshida joylashgan bir necha qator pixlari ilmoqqa o`xshash orqaga egilgan. Tana qoplagichi kutikula va uning ostidagi gipoderma sinsitiydan iborat [1, 179-b].

Kinorinxlar detrit, bakteriyalar, suv oʻtlari yoki diatomlar bilan oziqlanadi[2]. Ovqat hazim qilish sistemasi oldingi tomomdagi ogʻizteshigi, orqa tomondagi chiqaruv teshigi va toʻgʻri nay shaklidagi ichakdan iborat. Ayrish sistemasi bir juft shoxlanmagan qisqa protonefridiylardan iborat. Nerv sistemasi xalqum atrofi nerv halqasi va qorin nerv stvolidan tuzilgan [1,180-b].

Filogeniyasi. Dastlab kinorinxlar oyoqlari yoʻqolib ketgan hayvonlar sifatida boʻgʻimoyoqlilar tipiga kiritilgan. Lekin protonefridiylarning rivojlanganligi ularni toʻgarak chuvalchanglarga kirishini koʻrsatdi. Tana qoplagichi va halqumining tuzilishi, tullash orqali oʻsishi ularni nematodalarga; protonefridiylarning boʻlishi esa qorinkipriklilarga yaqinlashtirdi. Shuning uchun filogenetik jihatdan kinorinxlarni biron chuvalchanglar guruhi bilan yaqinlashtirib boʻlmaydi[1,181-b].

Priapulidlar – yirtqich, dengiz, loyda yashovchi, segmentlanmagan chuvalchanglarning 15 ga yaqin turlaridan biri. Priapulidlarning eng kattasi uzunligi 10 dan 15 smgacha boʻlib, sovuqroq dengizlarda, eng kichigi bir necha millimetr uzunlikda, issiq dengizlarda uchraydi[4].

Birinchi marta 1816 yilda fransuz tabiatshunosi Jan-Batist Lamark taʼriflagan. Priapulidlar erta kembriy davrida koʻp va keng tarqalgan boʻlib, ularning yumshoq choʻkindidagi tunel faoliyatikoʻplab iz qoldiqlarini yaratadi[5].

Priapulidlarning ogʻzi katta muskulli halqumga, qisqa qiziloʻngachga, kattaroq ichakka va orqa uchida anus bilan toʻgʻri ichakka kiradi. Qon aylanish tizimi yoʻq. Nerv tizimi juda oddiy boʻlib, ogʻizni oʻrab turadigon nerv halqasi, qorin nerv stvoli va periferik nervlardan iborat. Reproduktiv organlari nay shaklida, urugʻlanish ichki[3].

Zamonaviy priapulidlarga juda oʻxshash bir qator qazilma turlari taxminan 540 milliondan 525 million yil oldin Kembriy davrida maʼlum boʻlgan[3].

Priapulanlar tanasi suyuqlik bilan toʻldirilgan boʻlib, u tana devori mushaklari qisqarganda gidrostatik skalet vazifasini bajaradi. Harakat paytida suyuqlik tana boʻylab aylanib, aylanish, chiqarish, nafas olish funksiyasini bajaradi[4].

Demak priapulidlarni olimlar exiuridlar va sipunkulidlar bilan bir tipga shuningdek nematodalarga ham yaqinlashtirishgan. Kinorinxlar esa koʻplab tuzilish xususiyatlari bilan toʻgarak chuvalchanglar tipiga kiritilgan. Har ikkala sinf vakillari ham dengizda tarqalgan chuvalchanglardir.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. O.MAVLONOV, SH.XURRAMOV, X.ESHONOVA “Umurtqasizlar zoologiyasi” Toshkent 2006
2. The World Kinoryncha Database – World Register of Marine Species
<https://www.marinespecies.org/kinoriyncha/>
3. Priapulid | invertebrate – Encyclopedia Britannica
<https://www.britannica.com/animal/priapulid>

4. Priapulida (Priapulans) – Encyclopedia.com

<https://www.encyclopedia.com/environment/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/priapulida-priapulans>

5. Priapulus caudatus – Wikipedia

https://en.m.wikipedia.org/wiki/Priapulus_caudatus